

**Rasulova Zilola Durdimurotovna**  
Buxoro davlat universiteti  
pedagogika kafedrası professori,  
p.f.f.d (PhD)

**Beknazarova Dilafruz Amirovna**  
Samarqand davlat pedagogika instituti  
tayanch doktoranti

## INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada innovatsion ta'lim muhitida talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, jumladan, kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan, evristik va innovatsion texnologiyalarga tayangan ta'lim modellarining kreativlikni shakllantirishdagi o'rni asoslab berilgan. Shuningdek, so'rovnoma va intervyu kabi empirik usullar orqali talabalarning innovatsion faoliyatga munosabati, ijodiy faollik darajasi hamda ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan metodlarga nisbatan fikr-mulohazalari o'rganilgan. Olingan natijalar asosida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishda ta'lim muhitining innovatsionligi, interaktivligi va raqamli texnologiyalar bilan boyitilganligi muhim omil ekanligi aniqlangan. Maqolada talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsion ta'lim muhiti, kreativ qobiliyat, kreativlik, pedagogik innovatsiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, faoliyatga asoslangan yondashuv, evristik yondashuv, raqamli ta'lim, pedagogik texnologiyalar, ijodiy fikrlash, ta'lim samaradorligi.

### МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ В ИННОВАЦИОННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

**Аннотация.** В данной статье проанализированы научно-теоретические основы и практические механизмы развития креативных способностей студентов в условиях инновационной образовательной среды. В исследовании обоснована роль современных педагогических подходов, в том числе компетентностного, личностно-ориентированного, деятельностного, эвристического, а также образовательных моделей, основанных на инновационных технологиях, в формировании креативности. Кроме того, с использованием эмпирических методов, таких как анкетирование и интервью, изучены отношение студентов к инновационной деятельности, уровень их творческой активности, а также их мнения относительно методов, применяемых в образовательном процессе. На основе полученных результатов установлено, что важными факторами развития креативных способностей являются инновационный характер образовательной среды, её интерактивность и насыщенность цифровыми технологиями. В статье разработаны научно-практические рекомендации, направленные на развитие креативных компетенций студентов.

**Ключевые слова.** инновационная образовательная среда, креативные способности, креативность, педагогические инновации, компетентностный подход, личностно-ориентированное обучение, деятельностный подход, эвристический подход, цифровое образование, педагогические технологии, творческое мышление, эффективность образования.

### MECHANISMS FOR DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE ABILITIES IN AN INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT

**Abstract.** This article analyzes the scientific-theoretical foundations and practical mechanisms for developing students' creative abilities in an innovative educational environment. The study substantiates the role of modern pedagogical approaches, including the competency-based, learner-centered, activity-based, heuristic approaches, as well as educational models based on innovative technologies, in fostering creativity. In addition, empirical methods such as

questionnaires and interviews were used to examine students' attitudes toward innovative activities, the level of their creative engagement, and their opinions regarding the teaching methods applied in the educational process. Based on the obtained results, it was determined that the innovative nature of the educational environment, its interactivity, and its enrichment with digital technologies are key factors in the development of creative abilities. The article also provides scientific and practical recommendations aimed at enhancing students' creative competencies.

**Key words:** *innovative educational environment, creative abilities, creativity, pedagogical innovations, competency-based approach, learner-centered education, activity-based approach, heuristic approach, digital education, pedagogical technologies, creative thinking, educational effectiveness*

**Kirish.** Jahonda ro'y berayotgan chuqur transformatsiya jarayonlari, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda global raqobat muhitining kuchayishi zamonaviy mutaxassis shaxsiga qo'yilayotgan talablarni tubdan yangilamoqda. Bugungi kunda mutaxassisdan nafaqat mustahkam nazariy bilim va kasbiy kompetensiyalar, balki yuqori darajadagi kreativ fikrlash, innovatsion yondashuv va muammolarni noan'anaviy hal etish qobiliyatlari ham talab etilmoqda. Shu jihatdan, innovatsion ta'lim muhitida talabalarning kreativ salohiyatini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Zero, kreativlik shaxsning yangi g'oyalarni ilgari surish, mavjud muammolarga original yechimlar topish va ijodiy yondashuv asosida faoliyat yuritish qobiliyatini ifoda etuvchi asosiy kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida ta'lim mazmuni va shakllarining yangilanishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng ko'lamda qo'llanilishi, shuningdek, virtual va gibrid ta'lim muhitlarining shakllanishi talabalarning ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda [5]. Bunday sharoitda ta'lim jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish orqali talabalarning intellektual va kreativ salohiyatini yuksaltirish mumkin. Biroq mazkur imkoniyatlardan samarali foydalanish, ularni maqsadli va tizimli ravishda ta'lim amaliyotiga joriy etish, shuningdek, natijadorlikka erishish uchun aniq pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, innovatsion ta'lim muhitida talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan mexanizmlarni tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagogika va psixologiya fanlari doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda kreativlikni rivojlantirish masalalari turli yondashuvlar asosida tahlil qilingan [2]. Biroq innovatsion ta'lim muhiti sharoitida mazkur jarayonni samarali tashkil etish, uning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari, metodik asoslari va amaliy mexanizmlarini kompleks tarzda yoritish masalasi hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ayniqsa, raqamli ta'lim resurslari, interaktiv ta'lim platformalari, sun'iy intellekt texnologiyalari hamda hamkorlikka asoslangan o'qitish modellari orqali talabalarning kreativ faolligini oshirish imkoniyatlarini chuqur ilmiy tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Innovatsion ta'lim muhitida talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi ko'plab pedagog olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, rus pedagog olimi V.A.Slastenin pedagogik innovatsiyalarning mazmuni va ularni ta'lim jarayoniga joriy etish masalalarini chuqur tahlil qilib, innovatsion faoliyat pedagog shaxsining ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, pedagogik innovatsiyalar o'qituvchini reproduktiv faoliyatdan kreativ faoliyatga olib chiquvchi asosiy vosita hisoblanadi [8].

Shuningdek, Amerikalik psixolog J.P.Gilford kreativ fikrlash nazariyasida divergent fikrlash tushunchasini ilgari surib, shaxsning yangi g'oyalar yaratish qobiliyatini kreativlikning asosiy mezon sifatida belgilaydi. Uning tadqiqotlari talabalarda mustaqil va erkin fikrlashni rivojlantirish zarurligini ilmiy asoslaydi [1].

Kreativlikni rivojlantirishning pedagogik jihatlari borasida E.Torrens ham muhim ilmiy xulosalar bergan. U kreativ qobiliyatlarni baholash va rivojlantirish bo'yicha maxsus testlar va

152 metodikalarni ishlab chiqqan bo'lib, ta'lim jarayonida ijodiy faoliyatni rag'batlantirish muhimligini ta'kidlaydi [9].

Mahalliy olimlardan N.Muslimov ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalarini o'rgangan. Uning ishlarida ta'lim muhitini innovatsion tashkil etish orqali talabalarning mustaqil va ijodiy fikrlashini shakllantirish mexanizmlari asoslab berilgan. Shu bilan birga, R.Mavlonova o'z tadqiqotlarida pedagogik jarayonda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining ahamiyatini ochib berib, bu yondashuv talabalarning kreativ salohiyatini rivojlantirishda samarali ekanligini ko'rsatadi [6].

Yuqoridagi nomlari qayd etilgan olimlarning qarashlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, innovatsion ta'lim muhitida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu jarayonda pedagogik innovatsiyalar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, divergent fikrlash va ijodiy faoliyatni rag'batlantiruvchi metodlar o'zaro uyg'un holda qo'llanilishi lozim.

**Tadqiqotda qo'llaniladigan usullar va yondashuvlar.** Talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish murakkab va ko'p omilli jarayon bo'lib, uni tadqiq etishda kompleks ilmiy yondashuvlar va turli tadqiqot usullaridan foydalanishni talab etadi. Mazkur tadqiqotda kreativlikni rivojlantirish jarayonini har tomonlama o'rganish maqsadida nazariy va empirik usullar uyg'unligiga asoslangan yondashuv qo'llaniladi. Nazariy tadqiqot usullari sifatida pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish usullaridan foydalaniladi. Bu orqali kreativlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarkibiy komponentlari hamda innovatsion ta'lim muhitida rivojlantirish mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Empirik tadqiqot usullari doirasida kuzatish, so'rovnomalar, test, suhbat muhim o'rin egalladi. Jumladan, talabalarning kreativ fikrlash darajasini aniqlash maqsadida diagnostik testlar va maxsus topshiriqlar qo'llaniladi. So'rovnomalar va intervyu usullari orqali esa talabalarning innovatsion faoliyatga munosabati, ijodiy faollik darajasi hamda ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan usullarga nisbatan fikr-mulohazalari o'rganiladi. Tadqiqotda shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, faoliyatga asoslangan yondashuv hamda akmeologik yondashuvlardan foydalaniladi. Kompetensiyaviy yondashuv talabalarda kreativ kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan bo'lsa, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv ularning individual xususiyatlari va ijodiy imkoniyatlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Faoliyatga asoslangan yondashuv esa talabalarni amaliy ijodiy faoliyatga jalb qilish orqali kreativlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Muhokama va natija.** Pedagogik innovatsiyalar o'zining muayyan tavsifiga ega. Pedagogik innovatsiyalarning bo'lajak o'qituvchilarning kreativ faoliyatini shakllantirishga xizmat qiladigan o'lchovlari quyidagilardan iborat: innovatsion usullarning yangiligi, optimalligi, yuqori natija berish imkoniyatiga egaligi, ommaviy tajribada ijodiy qo'llash imkoniyatiga egaligi kabilar. Innovatsion usullarning asosiy o'lchovi ularning yangiligi, ilmiy tadqiqot natijalari hamda ilg'or pedagogik tajribalar bilan tengligidadir. Shuning uchun ham innovatsion jarayonda faoliyat ko'rsatishni istovchi o'qituvchilar uchun yangilikning asosiy mohiyati

nimadan iboratligini bilish muhim ahamiyatga ega. Agar bir o'qituvchi uchun mazkur tajriba tamoman yangi hisoblansa, ikkinchisi uchun yangi bo'lmasligi ham mumkin. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilar uchun ham ayni bir usulning yangilik darajasi turli-tuman bo'lishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchilar ham, bo'lajak pedagoglar ham innovatsion ijodiy faoliyatga ixtiyoriy tarzda o'z ehtiyojlaridan kelib

chiqqan holda kirishishlari lozim. Bu, o'z navbatida, ularning shaxsiy o'ziga xosliklari, individual-psixologik xususiyatlari bilan bevosita bog'liqdir [3]. Demak G.Karimova, N.Azamatovalar fikrlaridan quyidagi ilmiy xulosalarni chiqarish mumkin: Avvalo, pedagogik innovatsiyalar muayyan mezonlar orqali baholanadi va ularning asosiy ko'rsatkichlari – yangilik, samaradorlik, optimallik hamda ommaviy qo'llash imkoniyati hisoblanadi. Bu esa innovatsion usullarning shunchaki yangiligi emas, balki amaliyotda yuqori natija berishi va keng tatbiq etilishini ham talab qiladi.

Ikkinchidan, "yangilik" tushunchasi nisbiy xarakterga ega. Bir pedagog yoki talaba uchun yangi bo'lgan usul boshqasi uchun oddiy bo'lishi mumkin. Demak, innovatsiyaning qiymati uning sub'ektiv qabul qilinishi bilan ham bog'liq.

Uchinchidan, innovatsion faoliyat majburiy emas, balki shaxsning ichki ehtiyoji va qiziqishiga asoslangan holda samarali kechadi. Bu jarayon pedagog va bo'lajak o'qituvchilarning individual-psixologik xususiyatlari bilan uzviy bog'liq. Bundan ko'rinib turibdiki, pedagogik innovatsiyalar samaradorligi ularning yangiligi bilan birga, shaxs tomonidan qabul qilinishi, qo'llanishi va individual xususiyatlar bilan uyg'unlashuviga ham bevosita bog'liqdir.

Pedagogik innovatsiyalarni baholash mezonlarini bilish bo'lajak o'qituvchining pedagogik ijodning rang-barang shakllarini o'zlashtirishi uchun qulay sharoit yaratadi. Pedagogik madaniyatning oddiy esda qolgan bilimlarni takrorlash shaklidan boshlab, ilmiy pedagogik jamoatchilikka ma'lum bo'lgan g'oyalar, kontseptsiyalar, texnologiyalarni o'z shaxsiy faoliyatiga singdirishdan ularni evristik, kreativ ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga qadar bo'lajak pedagoglarning kundalik harakati mazmunini tashkil etishi lozim. Pedagogik innovatsiyalarning mazmuni, uni qo'llash metodlarini bo'lajak o'qituvchilar tajribasiga singdirish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasasi hayotiga pedagogik innovatsiyalarni keng ko'lamda olib kirish uchun unda yangilik muhitini yaratish, muayyan axloqiy-psixologik holatni shakllantirish, tashkiliy, metodik, psixologik xarakterdagi chora-tadbirlarni qo'llash talab etiladi. Shu maqsadda bo'lajak o'qituvchilarning kreativ funktsiyalarini rivojlantirish, ularni pedagogik innovatsiyalar bilan izchil qurollantirib borish, innovatsion usullarni tahlil va tatbiq qilishga o'rgatish vazifasini qo'yish lozim [7]. Ushbu qarashlarda pedagogik innovatsiyalarning bo'lajak o'qituvchi shaxsini shakllantirishdagi ahamiyati chuqur asoslangan. Avvalo, innovatsiyalarni baholash mezonlarini bilish bo'lajak pedagoglarga ijodiy faoliyatning turli shakllarini anglash va o'zlashtirish imkonini beradi. Bu esa ularning oddiy bilimlarni qayta takrorlash darajasidan chiqib, ilmiy g'oya va texnologiyalarni mustaqil ravishda qo'llash va rivojlantirish bosqichiga o'tishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, pedagogik madaniyat dinamik jarayon sifatida talqin qilinib, u reproduktiv faoliyatdan kreativ va evristik faoliyatgacha bo'lgan izchil rivojlanishni qamrab olishi ta'kidlanadi. Demak, bo'lajak o'qituvchi nafaqat mavjud bilim va texnologiyalarni o'zlashtirishi, balki ularni qayta ishlab chiqishi va amaliyotga tatbiq etishi lozim. Muhim jihatlardan yana biri – innovatsiyalarni ta'lim muhitiga joriy etish uchun maxsus sharoitlar yaratish zaruratidir. Ya'ni, ta'lim muassasasida yangilik muhitini shakllantirish, ijobiy psixologik iqlimni ta'minlash va tashkiliy-metodik choralarni amalga oshirish innovatsion faoliyat samaradorligini belgilaydi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, Slastenin qarashlarida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ funktsiyalarini rivojlantirish, ularni innovatsion faoliyatga tayyorlash va pedagogik innovatsiyalarni tahlil qilish hamda amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini shakllantirish zamonaviy pedagog tayyorgarligining ustuvor yo'nalishi sifatida talqin etiladi.

#### **Talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda turli innovatsion yondashuvlardan foydalanish usullari**

<b>№</b>	<b>Yondashuv turi</b>	<b>Mazmuni</b>	<b>Qo'llash usullari</b>	<b>Kutiladigan natijalar</b>
<b>1</b>	<b>Kompetensiyaviy yondashuv</b>	Bilim va ko'nikmalar integratsiyasi orqali kreativlikni rivojlantirish	Keys-stadi, muammoli vazifalar	Mustaqil qaror qabul qilish
<b>2</b>	<b>Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv</b>	Individual xususiyatlarni hisobga olish	Portfolio, refleksiya	Ijodiy mustaqillik
<b>3</b>	<b>Faoliyatga asoslangan yondashuv</b>	Amaliy faoliyatga jalb qilish	Loyiha, treninglar	Amaliy kreativ ko'nikmalar

4	<b>Muammoli o'qitish</b>	Muammo orqali fikrlashni rivojlantirish	Tahlil, munozara	Tanqidiy fikrlash
5	<b>Loyiha asosida o'qitish</b>	Natijaga yo'naltirilgan ijodiy faoliyat	Loyiha himoyasi	Yangi g'oyalar
6	<b>Hamkorlikda o'qitish</b>	Guruhli faoliyat	Debat, jamoaviy ish	Kommunikativlik
7	<b>Raqamli ta'lim yondashuvi</b>	AKTdan foydalanish	Onlayn platformalar	Raqamli kreativlik
8	<b>Evristik yondashuv</b>	Mustaqil g'oya topish	Brainstorming	G'oya generatsiyasi
9	<b>Akmeologik yondashuv</b>	Shaxsiy rivojlanish	O'z-o'zini baholash	Kasbiy o'sish
10	<b>Innovatsion texnologiyalar</b>	Zamonaviy texnologiyalar	AR/VR, simulyatsiya	Innovatsion fikrlash

Yuqoridagi jadvalda aks ettirilgan yondashuvlar talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda kompleks va o'zaro bog'liq tizimni tashkil etadi. Har bir yondashuv kreativlikning muayyan jihatini shakllantirishga xizmat qiladi. Avvalo, *kompetensiyaviy yondashuv* talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarni integratsiyalash orqali ularni amaliy faoliyatda qo'llashga yo'naltiradi. Bu yondashuv kreativ fikrlashni real muammolarni hal qilish jarayonida shakllantirish imkonini beradi.

*Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv* esa har bir talabaning individual xususiyatlari, qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta'limni tashkil etishni nazarda tutadi. Bu orqali talabalarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv rivojlanadi.

*Faoliyatga asoslangan yondashuv* talabalarni bevosita amaliy va ijodiy faoliyatga jalb qilish orqali ularning kreativ salohiyatini oshiradi. Bu yerda bilim emas, balki faoliyat jarayoni ustuvor ahamiyatga ega.

*Muammoli o'qitish* talabalarni murakkab vaziyatlar bilan yuzlashtirib, ularni tahlil qilish va yechim topishga undaydi. Bu jarayonda tanqidiy va kreativ fikrlash bir vaqtning o'zida rivojlanadi.

*Loyiha asosida o'qitish* talabalarni aniq natijaga yo'naltirilgan ijodiy faoliyatga jalb etadi. Bu orqali ular yangi g'oyalar yaratish, rejalashtirish va natijani himoya qilish ko'nikmalarini egallaydi.

*Hamkorlikda o'qitish* guruhda ishlash orqali talabalarning kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Turli fikrlar almashinuvi kreativ g'oyalarning paydo bo'lishiga xizmat qiladi.


*Raqamli ta'lim yondashuvi* axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali talabalarning kreativ fikrlashini yangi bosqichga olib chiqadi. Bu yerda raqamli muhitda ijod qilish ko'nikmalari shakllanadi.

*Evristik yondashuv* talabalarni mustaqil ravishda yangi g'oyalar topishga yo'naltiradi. Bunda ijodiy izlanish va g'oyalar generatsiyasi asosiy o'rin tutadi.

*Akmeologik yondashuv* shaxsning eng yuqori rivojlanish darajasiga erishishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, u talabalarning o'z-o'zini rivojlantirish va baholash qobiliyatini shakllantiradi.

Nihoyat, *innovatsion texnologiyalarga asoslangan yondashuv* zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi hamda talabalarda innovatsion va kreativ fikrlashni rivojlantiradi.

## So'rovnoma va intervyular asosida kreativ faollikni o'rganish



Ushbu sxematik tasvirga ko'ra, avval tadqiqot maqsadi aniqlanadi, so'ng talabalardan so'rovnoma va intervyu orqali ma'lumotlar yig'iladi. Olingan ma'lumotlar asosida talabalarning innovatsion faollikka munosabati, kreativ darajasi va ta'lim usullariga bo'lgan qarashlari tahlil qilinadi. Yakunida esa ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**Xulosa.** Zamonaviy ta'lim muhitida kechayotgan innovatsion o'zgarishlar, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi hamda ta'lim jarayonining shaxsga yo'naltirilgan xarakter kasb etishi talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishni ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab bermoqda. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, kreativlikni shakllantirish va rivojlantirish tasodifiy emas, balki aniq maqsadga yo'naltirilgan, ilmiy asoslangan va tizimli tashkil etilgan pedagogik jarayon sifatida amalga oshirilishi lozim. Tadqiqot natijalariga ko'ra, talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan, evristik hamda innovatsion texnologiyalarga tayangan yondashuvlarning o'zaro integratsiyasi yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Mazkur yondashuvlar talabalarda nafaqat ijodiy fikrlash, balki mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni noan'anaviy hal etish, innovatsion g'oyalarni ilgari surish kabi muhim kompetensiyalarni shakllantiradi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida qo'llanilgan so'rovnoma va intervyu kabi empirik usullar orqali talabalarning innovatsion faoliyatga munosabati, ijodiy faollik darajasi hamda ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan metodlarga nisbatan fikr-mulohazalari o'rganilib, ularning kreativ rivojlanish dinamikasini baholash imkoni yaratildi. Olingan natijalar talabalarning kreativ salohiyatini rivojlantirishda ta'lim muhitining mazmunan boyligi, pedagogik texnologiyalarning innovatsionligi va ta'lim jarayonining interaktivligi hal qiluvchi omillar ekanligini tasdiqladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kreativ qobiliyatlarni samarali rivojlantirish uchun ta'lim muassasalarida innovatsion muhitni shakllantirish, ijobiy psixologik iqlim yaratish, pedagoglarning innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirish hamda talabalarni ijodiy faoliyatga faol jalb etish zarur. Shu bilan birga, ta'lim jarayonini raqamli platformalar, interaktiv usullar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish talabalarning kreativ fikrlashini yanada faollashtiradi. Demak, innovatsion ta'lim muhitida talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish kompleks yondashuvni talab etadi. Ushbu jarayonda nazariy bilimlar, amaliy faoliyat va innovatsion texnologiyalar uyg'unligi ta'minlanganda, yuqori intellektual va ijodiy salohiyatga ega, raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlash imkoni yaratiladi. Mazkur tadqiqot natijalari

ta'lim amaliyotiga joriy etish uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, kelgusida ushbu yo'nalishdagi izlanishlar uchun metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

**Amaliy tavsiyalar:**

1. *Innovatsion ta'lim muhitini shakllantirishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish.*

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida raqamli texnologiyalar, interaktiv platformalar va zamonaviy pedagogik usullar bilan boyitilgan innovatsion ta'lim muhitini yaratish zarur.

2. *Kreativlikni rivojlantiruvchi pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish.*

Ta'lim jarayonida muammoli o'qitish, loyiha asosida o'qitish, hamkorlikda o'qitish va evristik metodlardan muntazam foydalanish talabalarning ijodiy fikrlashini faollashtiradi va ularning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi.

3. *Pedagoglarning innovatsion va kreativ kompetentsiyalarini rivojlantirish.*

O'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari, treninglar va seminarlar tashkil etish orqali ularning innovatsion texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini takomillashtirish va kreativ pedagogik faoliyatga tayyorgarligini kuchaytirish lozim.

4. *Talabalarning kreativ faolligini baholashning zamonaviy diagnostik tizimini joriy etish.*

So'rovnoma, test, portfolio va refleksiya kabi baholash usullaridan foydalanib, talabalarning kreativ rivojlanish darajasini aniqlash va uning dinamikasini monitoring qilish maqsadga muvofiq.

5. *Ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan va individuallashtirilgan asosda tashkil etish.*

Talabalarning individual qobiliyatlari, qiziqishlari va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limni tashkil etish orqali ularning ijodiy salohiyatini to'liq rivojlantirishga erishish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Gilford J.P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967.
2. Toxtaxodjayeva M.X va boshqalar. Pedagogika nazariyasi / OTM uchun darslik – T.: "Iqtisod-moiya", 2010.
3. Karimova G., Azamatova N. Bo'lajak pedagog kasbiy mahoratining shakllanish mezonlari. // "Xalq ta'limi" jurnali. T.: 2006, 3-son. 54-57 b.
4. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi / Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013. – B.14.
5. Muslimov N. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. –Toshkent: Fan, 2015.
6. Mavlonova R. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Oqituvchi, 2010.
7. Сластенин В.А., Подымова Л.С. Педагогика: Инновационная деятельность. – М.: «Издательство Магистр», 1997. – С. 224.
8. Сластенин В.А. Педагогика: инновационные процессы в образовании. – Москва: Просвещение, 2002.
9. Torrance E.. Torrance Tests of Creative Thinking. – Lexington: Personnel Press, 1974.